

**ALEKSAND ARKADEVICH FAYNBERGNING “BESH DAQIQA QOLDI UCHIB KETAMAN...” SHE’RIDA HIJRON VA PARVOZ FALSAFASI**

*Nurmaxmatova Firuza Rasulovna*

*O‘zbekiston Davlat Jahon tillari*

*Universiteti Ingliz filologiyasi Fakulteti 2-bosqich talabasi*

*feruzanurmaxmatova2005@gmail.com*

**Annotatsiya:** XX asr o‘zbek adabiyotida o‘ziga xos badiiy tafakkur va poetik uslub yaratgan, o‘z badiiy asarlari bilan o‘z kelayotgan zamonaviy o‘zbek adabiyotining yosh vakillariga o‘rnak bo‘layotgan ijodkorlardan biri Aleksandr Arkadevich Faynbergdir. U millatlararo adabiy muhitda shakllangan, rus va o‘zbek madaniy-estetik an‘analari tutashgan nuqtada ijod qilgan shoir sifatida o‘zbek she‘riyatiga yangi ruh, yangi obrazlar tizimi va zamonaviy tafakkur olib kirdi. Inson ichki kechinmalari, uning qalbida va ongostida sodir bo‘layotgan hodisalar, ziddiyatlarni oddiy real voqealik manzaralari bilan teran falsafiy-badiiy uslubda chuqur qatlamlarigacha kirib borib ochib berish xususiyati Aleksandr Faynberg she‘riyatining eng ajralib turadigan xususiyati sanaladi. Shoir ijodida sadoqat, muhabbat, ayriliq, yolg‘izlik kabi mavzulariga ko‘p murojaat qilgan. Biroq u bu tuyg‘ularni romantik tasvir shaklida emas, zamonaviy insonning ichki inqirozi, hissiy charchog‘i va ma‘naviy izlanishlari fonida tasvirlaydi. Faynberg lirikasi hissiy jo‘shqinlik bilan bir qatorda, aqliy mulohaza uyg‘unligiga ham asoslangan. Adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan qaraganda Faynberg lirikasida ramziylik oddiy, lekin shu she‘riy sodda tilning mazmunan chuqur adabiy imkoniyatlari bor. “Besh daqiqa qoldi uchib ketaman...” misrasi bilan boshlanuvchi she‘r ham ijodkorning oddiy tili orqali chuqur falsafiy qarashlarni, mulohazalarni ochib bergan. Faynberg bu she‘rida kundalik hayot detallarini badiiy umumlashmaga aylantirish, zamonaviy hayot unsurlarini lirik ruh bilan uyg‘unlashtirish mahoratini namoyon etadi. Mazkur maqolada shoir qalamiga mansub “Besh daqiqa qoldi uchib ketaman...” she‘ri badiiy tahlil qilinadi.

**Abstract:** One of the creators who created a unique artistic thinking and poetic style in 20th-century Uzbek literature, who is an example for young representatives of modern Uzbek literature who are growing up with their artistic works, is Alexander Arkadyevich Feinberg. As a poet who was formed in an interethnic literary environment and created at the junction of Russian and Uzbek cultural and aesthetic traditions, he brought a new spirit, a new system of images and modern thinking to Uzbek poetry. The most distinctive feature of Alexander Feinberg's poetry is the ability to penetrate and reveal the innermost layers of a person's experiences, the events and contradictions occurring in his soul and subconscious with simple realistic scenes of

events, in a deep philosophical and artistic style. In his work, the poet often addressed themes such as loyalty, love, separation, and loneliness. However, he did not express these feelings in the form of romantic images, but rather in the form of the inner crisis, emotional state of a modern person. It depicts fatigue and spiritual searches against the background of Feinberg's lyrics, along with emotional intensity, are also based on the harmony of intellectual reflection. From the point of view of literary criticism, the symbolism in Feinberg's lyrics is simple, but this poetically simple language has deep literary possibilities in content. The poem, which begins with the line "I'm flying away for five minutes...", also reveals deep philosophical views and reflections through the simple language of the creator. In this poem, Feinberg demonstrates the skill of transforming the details of everyday life into an artistic generalization and combining elements of modern life with a lyrical spirit. This article analyzes the poem "I'm flying away for five minutes..." by the poet.

**Аннотация:** Одним из творцов, создавших уникальное художественное мышление и поэтический стиль в узбекской литературе XX века, примером для молодых представителей современной узбекской литературы, растущих вместе со своим творчеством, является Александр Аркадьевич Файнберг. Поэт, сформировавшийся в межэтнической литературной среде и творивший на стыке русской и узбекской культурно-эстетических традиций, привнес в узбекскую поэзию новый дух, новую систему образов и современное мышление. Наиболее отличительной чертой поэзии Александра Файнберга является способность проникать и раскрывать самые сокровенные слои человеческого опыта, события и противоречия, происходящие в его душе и подсознании, с помощью простых реалистичных сцен, в глубоком философско-художественном стиле. В своем творчестве поэт часто обращался к таким темам, как верность, любовь, разлука и одиночество. Однако он выражал эти чувства не в форме романтических образов, а скорее в форме внутреннего кризиса, эмоционального состояния современного человека. На фоне лирики Файнберга, наряду с эмоциональной интенсивностью, изображены усталость и духовные поиски, основанные на гармонии интеллектуальных размышлений. С точки зрения литературной критики, символика в лирике Файнберга проста, но этот поэтически простой язык обладает глубоким литературным потенциалом в содержании. Стихотворение, начинающееся со строки «Я улетаю на пять минут...», также раскрывает глубокие философские взгляды и размышления через простой язык автора. В этом стихотворении Файнберг демонстрирует мастерство преобразования деталей повседневной жизни в художественное обобщение и сочетания элементов современной жизни с лирическим духом. В данной статье анализируется стихотворение поэта «Я улетаю на пять минут...».

**Kalit soʻzlar:** Aleksandr Arkadevich Faynberg, zamonaviy lirika, urbanistik poetika, muhabbat va hijron, parvoz ramzi, lirik qahramon, ruhiy inqiroz, anafora, antiteza, metafora, falsafiy mushohada, poetik tafakkur.

**Keywords:** Alexander Arkadevich Feinberg, modern lyrics, urban poetics, love and exile, symbol of flight, lyrical hero, spiritual crisis, anaphora, antithesis, metaphor, philosophical observation, poetic thought.

**Ключевые слова:** Александр Аркаевич Файнберг, современная лирика, городская поэтика, любовь и изгнание, символ бегства, лирический герой, духовный кризис, анафора, антитеза, метафора, философское наблюдение, поэтическая мысль.

Aleksandr Arkadevich Faynberg yuqorida aytganimiz kabi deyarli barcha umuminsoniy hissiyot, fazilat, xususiyatlarni oʻz asarlarida yangi uslub va timsollar bilan falsafiy ruhda ochib bergan. U yozgan sheʼrlar oddiy, tushunarli, oʻqishga oson ekanligi oʻquvchiga estetik zavq bagʻishlaydi. "Besh daqiqa qoldi uchib ketaman..." sheʼri ham mana shunday ajoyib asarlar turkurkumiga kiradi. Sheʼrning asosiy gʻoyasi inson qalbida yuz beruvchi hissiy bogʻliqlikdan uzulib, ruhiy mustaqillikka erishish jarayonini ochib yoritib berishdan iborat. Asarda ayriliq yuz bergan oddiy voqea sifatida emas, inson hayotida tub burilish yasaydigan ruhiy transformatsiya koʻrinishida talqin qilinadi. Lirik qahramonning samolyot bilan boshqa mamlakatga uchib ketishi bu shunchaki moddiy makonni almashtirish sahnasi emas, balki oʻtmishdan qalbida qolib ketgan barcha xotiralar, tuygʻular, kechinmalar, bogʻlanishlar bilan orani ochiq qilish, yaʼni hisob qilishi sahnasi aslida. Sheʼrda muhabbatni ideallashtirishga boʻlgan istak va yoki harakat koʻzga tashlanmaydi. Lirik qahramon sevgilisi bilan bir qatorda sadoqat, xiyonat, baxt, qaygʻu kabi tuygʻular bilan ham xayrlashadi. Bu esa gʻoyaning shunchaki ikki inson oʻrtasidagi ayriliqni ishodalagan tor doiradagi tushuncha emasligi, u umuminsoniy xarakterga ega ekanligini koʻrsatadi. Asarda lirik qahramonning boshqa insoniy hislar, fazilatlar bilan ham xayrlashishi uning zamonaviy insonga xos maʼnaviy charchoq, ruhiy inqirozga uchraganini anglatadi. Asosiy gʻoya boshqa jihatdan erkinlikka intilish istagi bilan bogʻliqdek ham tuyuladi. Qahramonning qarori qatʼiy. U olis yurtlarga ketmoqchi. Toʻgʻri, albatta bu ogʻriq, iztirobga ham sabab boʻlishi mumkin, ammo shu bilan bir qatorda mustaqillik hissini ham baxsh etadi. Endi u hech narsaga bogʻlanmagan, hech qanday masʼuliyati yoʻq sovuqqon inson. Bundan kelib chiqib aytish mumkinki, sheʼr insonning ruhiy rivojlanish bosqichini tasvirlaydi: hissiy bogʻliqlikdan-sovuqqon qarorlarga, iztiroblardan qatʼiyatga oʻtish. Shuningdek, asarda hayotning dualistik mohiyati ham ochiladi. Sadoqat va xiyonat, muhabbat va nafrat, baxt va qaygʻu hayotni tashkil etuvchi bir butun tizim sifatida koʻrinadi. Lirik qahramon inson ongostida, ichki olamida qarama-qarshiliklarni keltirib chiqarayotgan shu tuygʻularni yuqoriga koʻtarilishiga boʻlgan xohishini

namoyon etadi. Ayni shu mazmunda insonning tuyg'ular hukmidan chiqib ruhiy mustaqillikni qo'lga kiritishi va o'z "men"ini qaytadan oyoqqa turg'azishi she'ning asosiy g'oyasi hisoblanadi.

Besh daqiqa qoldi uchib ketaman,  
Yurak kulga to'ldi, o'pka tutunga.  
Eng baland manzilni ishg'ol etaman,  
Yolg'iz tashlab ketgum seni ochunga.

She'ning ilk bandidanoq Aleksandr Faynberg she'riyatiga xos bo'lgan keskinlik va kuchli drammatizmi ko'rishimiz mumkin. "Besh daqiqa qoldi uchib ketaman" misrasidagi "besh daqiqa" kuchli psixologik bosimni yaratadi. Bu aniq belgilandan vaqt birligi lirik qahramon qarorining qat'iy ekanligini, endi ortga qaramasligini bildiradi. "Yurak kulga to'ldi, o'pka tutunga" satrida kuchli metaforik ifoda qo'lland. Kul- allaqachon yonib bo'lgan tuyg'ular ramzi, tutun- hali so'nmagan og'riqlar timsoli. Shoir shu ikki obraz vositasida ichki olamdagi hissiy halokatning ikki bosqichini yoritib beradi. "Eng baland manzilni ishg'ol etaman" misrasi o'z ma'nosida tashqi dunyoda yuksak marralar, yutuqlarni zabt etish ma'nosini bildirsa, ramziy ma'noda ichki dunyoda ruhiy ustunlikni qo'lga olishga, hissiy qaramlikdan chiqishga bo'lgan xohishni ko'rsatadi. Bu yerda ishlatilgan "ishg'ol etaman" birikmasi ko'zlangan maqsadlariga qahramonning kurashlar bilan, kuch bilan erishishini anglatadi. "Yolg'izlikka tashlab ketgum seni ochunga" misrasidagi "ochun" bu-dunyo. Lirik qahramon nafaqat sevgilisini, balki umumiy hayotiy makonni ham tark etmoqda.

Bu, axir, juda ham oddiy haqiqat,  
Tortqilayvermagin yomg'irpo'shingni.  
Men uchib borayotgan olis mamlakat,  
Senga to'g'ri kelmas, yig'vol hushingni.

Ushbu bandda lirik qahramonning qat'iyati va ichki sovuqqonligi yanada oydinlashadi. "Bu, axir, juda ham oddiy haqiqat" misrasida qahramon uchun qilgan qarori hissiy emas, balki aqliy xulosaga aylanib bo'lganini ko'ramiz. "Oddiy haqiqat" iborasi muhabbat yuzlashgan fojeani, kundalik zarurat darajasigacha pasaytiradi. Bu esa ichki uzulishning qay darajada chuqurligini ko'rsatadi. "Tortqilayvermagin yomg'irpo'shingni" satrida yomg'irpo'sh bu-panoh, ya'ni ko'z yoshlaridan saqlanish ramzi. Bu detallar orqali xayrlashuv sahnasi o'quvchi ko'z o'ngida gavalantiriladi. Qahramonning sevgilisi ojiz ekanligini, bo'layotgan hodisani o'zgartira olmasligini shoir shu yo'l bilan ko'rsatadi. "Men uchib borayotgan olis mamlakat" misrasi ramziy ma'noga ega. Bu yerda "olis mamlakat" geografik makonni emas, ruhiy yiroqlikni bildiradi. Parvoz-begonalashuv va ortga qaytib kelmaslik timsoli. "Senga to'g'ri kelmas, yig'vol hushingni" qatorida lirik qahramon o'z yo'lini tanlaganini, bu yo'lda yolg'iz yo'lishni xohlashini va bu tanlagan yo'li boshqalarga

to'g'ri kelmasligini ta'kidlaydi.

Illyuminatorga quyosh sochar nur,  
Radar to'lqinidan o'zadi parvoz.  
– Qayoqqa? – lablaring qimirlar og'ir,  
Qo'l siltaysan, chiqmas shovqinda ovoz.

Bu bandda parvoz tasviri, quyosh nuri, radar kabi zamonaviy elementlar asnosida tashqi voqelik jonlantirilgan bo'lsa, dialog va sukut orqali ichki iztirob ochib beriladi. Savolning javobsiz qolib ketishidan va ovozning shovqinda yo'qolib qolib eshitilmasligidan ruhiy masofaning ortganini anglaymiz. Bu yerda parvoz ichki uzilish bilan birlashib, ayriliqni o'zgartirishning imkoni yo'qligini va o'sha damda yuzaga chiqadigan og'ir psixologik holatni ifodalaydi.

Yerga tegmay uchar yelgan g'ildirak,  
Qanotlar ostidan ko'tarar shamol.  
Savoling havoda qolar muallaq,  
Sevgilim, sevilgan go'shangda xush qol!

Bu bandning umumiy mazmuni javobsiz savol motivi tashkil etadi. Havoda muallaq qolib ketgan savol nihoyasiga yetmagan tuyg'ular, aytilmay qolib ketgan, so'zlar va izohsiz tark etishning ifodasidir. Bu yerda ayriliq ikki insonning orasidagi masofagina emas, muloqotning butunlay uzilishidir. Avvalgi bandlarda keskinlik ko'rsatayotgan qahramon endi oz bo'lsa-da yumshaydi. Keskinlik o'rniga taqdirga tan berish, xotirjamlik keladi.

Xush qol, ey sadoqat, xush qol, xiyonat,  
Xush qol, baxt va shodlik, xush qol, qayg'u-g'am.  
Xush qol endi nafrat, xush qol, muhabbat,  
Zor emasman endi hatto senga ham.

Ushbu bandda Faynberg she'r ruhiy g'oyasining cho'qqisini yaratadi. "Xush qol" anaforaning ishlatilishi lirik qahramonning butun hissiyotlar dunyosi bilan vidolayotgani ifodasidir. Bu yerda u birgina sevgan yori bilan emas, uni ichidan kemirib borayotgan, ruhiga bosim berib qiynayotgan tuyg'ularning bari-bariga o'z xayrini aytadi. Bilamizki, sadoqat xiyonatsiz, muhabbat nafratsiz, baxt qayg'usiz bo'lmaydi. Bu yonma-yonlik, biriga ichidamasa, boshqasi kelmaydigan tuyg'ular juftligi qahramonni juda holdan toydirgan. "Zor emasman endi hatto senga ham" misrasida biz yuqoridagi fikr tasdiqi bilan birga, endi lirik qahramon uchun hayotda hech narsaning qiziqi qolmaganligi, sovuqqon va befarq kimsaga aylanganligini ko'ramiz.

Xulosa qilib aytganda, Aleksandr Arkadevich Faynbergning ushbu she'ri inson ruhiyatining murakkab va ziddiyatlar bilan to'lib toshgan kechinmalarini teran poetik uslub orqali aniq ochib beradi. Asarda tasvirlab berilgan xayrlashuv manzarasi hissiy qaramlikdan to'laqonli ruhiy mustaqillikka intilish sifatida ifodalanadi. Shoirning bu she'ri zamonaviy o'zbek adabiyotida inson ruhiy dunyosi, hissiyotlarida paydo bo'lgan

ziddiyatni va hayotiy tanlovlarni chuqur poetik tarzda ochib berishni o'z oldiga qo'ygan ijodkorlar uchun dasturilamal bo'lib xizmat qilib kelmoqda.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Karimova N. Adabiyot va tuyg'u estetikasi. — Toshkent: O'zbekiston faylasuflari jamiyati nashriyoti, 2020.
2. Qosimov B. Zamonaviy o'zbek lirikasida falsafiy yo'nalishlar. — Toshkent: O'zMU nashriyoti, 2019.
3. <https://ilmlar.uz/faynberg-aleksandr-arkadevich-hayoti-va-ijodi/>
4. [https://uz.wikipedia.org/wiki/Aleksandr\\_Faynberg](https://uz.wikipedia.org/wiki/Aleksandr_Faynberg)
5. <https://arboblar.uz/uz/people/fajnberg-aleksandr-arkadevich>
6. <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/jahon-she-riyati/rus-she-riyati/aleksandr-faynberg-1939-2009>